

KASBIY MAHORAT-SIFATLI TA`LIMNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

Kirgizova Raxilya Isakjanovna

Sirdaryo tumani 10-umumta'lim maktabining amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kasbiy mahoratning ahamiyati, kasb-hunar maktablarida ta'lif sifati va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishda o'tkaziladigan "Mahorat darslari"ning ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lif sifati, maxorat darslari, yondoshuv, samaradorlik, axborot resurs, usul, pedagogik texnologiya, ta'lif-tarbiya, pedagogik faoliyat, bilim, ko'nikma, malaka, intellektual qiziqish.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan. Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda. Pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, darslarda pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi va uni rivojlantirish istiqbollarini ochib berishi kerak.

ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida to'rtinchi ustuvor yo'nalish aynan ta'lif sohasini, inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev endilikda yuqori malakali, o'z ustida doimiy ishlaydigan muallimlar faoliyatini yangi yondashuvlar asosida qo'llab-quvvatlash, mahoratli pedagoglar tajribasidan samarali foydalanib, ularning o'qitish metodikasini ommalashtirish kabi vazifalarni ilgari surdi.

Bunda o'qituvchi bilimli bo'lmasa, kelajak avlodga hech narsa bera olmasligi qayd etilar ekan, bugun ayrim pedagoglar sifatli dars o'tishga emas, ko'proq soat olishga intilishi alohida ta'kidlandi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'zbekiston Respublikasida o'qituvchi kadrlarning ma'naviy qiyofasi, aqliy salohiyati hamda kasbiy mahoratiga nisbatan jiddiy talablar qo'yilgan. Bugungi kun o'qituvchisiga nisbatan qo'yilayotgan talablar mazmuni yil sayin yangilanib, zamon talablariga moslashib bormoqda.

Zamonaviy o'qituvchi qanday bo'lishi zarur? Avvalo u o'z mutaxassisligi bo'yicha ta'lif beradigan fanlardan pedagogik texnologiyalarga asoslangan darslarni

ta'minlashi, pedagogik va axborot texnologiyalari hamda o'quvchilar o'quv faoliyatini faollashtiruvchi metodlarni qo'llashi, o'quv mashg'ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalarining so'nggi yutuqlarini uyg'unlashtirish malakasiga ega bo'lishi, ta'lif muassasalarida fanlarni o'qitish mazmuniga mos ravishda pedagogik tizimni loyihalay olishi, ta'lif beradigan fanlar turkumini rivojlantirish istiqbollarini ohib berishga qaratilgan ilmiy izlanishlarni muntazam amalga oshira olishi zarur.

O'qituvchi avvalo o'quv-tarbiyaviy jarayoni va uning tashkil etuvchilarini samarador texnologiyalardan foydalanishi uchun har bir konkret holat uchun ularni to'g'ri tanlab olishni, diagnostikalashni, oldindan bilishni va berilgan daraja va sifat jarayonini loyihalashni juda yaxshi bilishi zarur. Dars mazmunining qay darajada yetkazib berilishi va tinglovchilar tomonidan nazariy hamda amaliy ko'nikmalarning o'zlashtirilishi ta'lif sifatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Ana shunday talablarga javob beradigan malakali mutaxassisning mahoratli pedagoglar tomonidan "Mahorat darslari" ni o'tkazilishi ham ta'lif sifati va o'qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishini omil hisoblanadi.

Mahorat darslari qo'llanish sohalari va ko'lamiga ko'ra qamrovi keng tushuncha hisoblanadi. Ta'lif tizimida "Master klass" yoki "Mahorat darslari" haqida so'z borar ekan, qadim Xitoy sivilizatsiyasini quyidagi hikmatli so'zlarini keltirib o'tish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: "Menga aytинг va men unutaman", "Menga ko'rsating va men eslab qolaman" va "O'zimni harakat qilishga ijozat bering va men o'rganaman" (Qadim Xitoy donishmandligi: hikmatlitoy donish Bizningcha, barcha ta'lif tizimlarida mavjud fanlarni o'qitishda yuqorida keltirilgan xitoy hikmatlariga asoslanishi kerak .

Har bir "Mahorat darslari" zamonaviy bilim berish usullari yuzasidan tajriba almashish, kasb-hunar maktablari o'qituvchilarining fan nazariyasi va metodikasiga oid bilimlarini mustahkamlash, amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishga oid yangi usullar bilan tanishtirish, fanlar bo'yicha yangi yaratilgan metodik qo'llanmalar, testlar, axborot resurslaridan o'quv jarayonida samarali foydalanishlariga yordam berish, shuningdek, doimiy tarzda o'qituvchilarning kasbiy mahoratini uzluksiz ravishda oshirib borish maqsadida o'tkaziladi.

"Mahorat darsi" o'tkazadigan har bir pedagog o'zi o'qitadigan fan va bu fan bilan chambarchas bog'liq fanlarni a'lo darajada bilishi, raqobatbardosh kadrlar sifatida faoliyat olib borishi, yuqori kompetentlik va kreativlikka (ijodkorlik) ega kadrlarni tayyorlash orqali aholining turmush darajasining yaxshilanishini ko'rish mumkin. Buning uchun ta'lif muassasalarida olib boriladigan mahorat darslari (master-klass) ning o'rni alohida ahamiyatga ega.

"Mahorat darslari" da o'qituvchilarning bo'sh vaqtini to'g'ri va oqilona tashkil etish maqsadida ilg'or pedagogik texnologiyalarning elementlari bo'lgan "Aqliy

hujum”, “Klaster”, “Zinama-zina”, “Zanjir”, “Kichik guruhlar ishi”, “Venn diagrammasi”, “Taqdimot”, “Tushunchalar bilan ishlash”, ”Rasm bilan ishlash”, “Baliq skeleti”, “Blis so‘rov” va shu kabi bir qancha pedagogik texnologiyalaridan samarali foydalanib, interfaol metodlardan dars jarayonida foydalanish o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish bo‘yicha dolzARB bo‘lgan mavzular asosida nazariy va amaliy mashg‘ulotlar olib boriladi va fanga oid kompetensiylar shakllantiriladi. Bu esa fan o‘qituvchisining kelgusidagi pedagogik faoliyatiga yordam berib, ta’lim sifatini oshirishning muhim omili bo‘lib xizmat qiladi.

O‘qituvchilar tomonidan o‘tkazilgan har bir mahorat darslarida fan o‘qituvchilarning, pedagogik mahorat almashinuvi, pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi uslublari, ularning faolligi, bilimi, kreativligi, kasbiy mahorati oshib boradi, shular asosida o‘tiladigan fan o‘qituvchilarining darslarni yuqori saviyada o‘tishiga, o‘quvchilarning esa bilim darajasini yuqori bo‘lishiga, dars samaradorligini oshirilishiga olib keladi.

Dars jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanishda o‘quvchilar faolligini oshirish, berilgan vazifaga mas’uliyat bilan yondashish, o‘z iqtidorini ko‘rsatishda o‘qituvchilar katta yordam beradi. O‘qituvchilar mahorat darslarini o‘tishda qiziqarli o‘qitish usullarini izlab topishga, ijod qilishga to‘g‘ri keladi, hamda ta’lim mazmunini bayon etish uchun bor kuchini, mahoratini ishga solib, dalil, ko‘rgazmali qurol, didaktik tarqatma materiallar yordamida tushuntirishga harakat qiladi. O‘qituvchilar o‘zaro mavzu, metodlar, ijodiy ishlar, amaliy topshiriqlar, uy ishlarini, mustaqil ishlash, takrorlashlar yuzasidan fikr, tajriba almashadi, laboratoriya ishlari bajaradilar.

XULOSA VA MUNOZARA

Pedagogning kasbiy mahorati - pedagogik jarayonda tarkib topadi. Pedagogik jarayon esa kasbiy va shaxsiy tayyorlarlikni yo‘lga qo‘yib, bo‘lajak mutaxassisni mehnatga, hayotga tayyorlash uchun davlat, jamiyat, millat va kelajak avlod oldida javob beradigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuning uchun, mutaxassis shaxsiy va kasbiy fazilatlar egasi bo‘lishi lozim. Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pedagoglarni darsga tayyorlanish jarayonida ta’limning “Mahorat darsi” shaklidan foydalanishda darslarni noan’anaviy tarzda tashkil qilinishi, o‘quvchilarni darslarga katta qiziqish bilan qatnashishlarini ta’minlaydi, o‘quvchilar darslarga avvaldan tayyorlanib keladilar, kelgusi dars qaysi mavzu bo‘lishiga e’tibor qaratadilarydalanishda darslarni noan’anaviy tarzda tashkil qilinishi, o‘quvchilarni darslarga katta qiziqish bilan qatnashishlarini ta’minlaydi, o‘quvchilar darslarga avvaldan tayyorlanib keladil ega bo‘lgan, muvaffaqiyatlarga erishgan o‘qituvchilar tomonidan o‘tilishi ta’lim sifati va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshishiga sabab bo‘ladi. O‘z kasbining mohir ustalari yetuk shogirdlarni yetishtirib, davlat ravnaqiga

o`z hissalarini qo`shadi. Ya`ni, aytish mumkinki, kasbiy mahorat sifatli ta`limni belgilab beruvchi asosiy omil bo`lib xizmat qiladi!

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Mirziyoev. Sh //Maktab ta`limini rivojlantirish bo`yicha ustuvor vazifalar belgilandi. Maktabdagi ta`lim sifati bo`yicha yig`ilish. //Yangi O`zbekiston gazetasi 28 yanvar 2022.
2. O`zbekiston Respublikasining Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonun//O`zbekistonning yangi qonunlari.-Toshkent: Adolat, 1998.- 18-tom. -3-36-b.
3. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 11.05.2022yildagi PF-134-son.
4. Maktab ta`limini rivojlantirish bo`yicha ustuvor vazifalar belgilandi.
5. A’зам Xoliqov //Pedagogik mahorat. О’кув qо’llanma. Toshkent 2010,-312 bet.
6. A.A’zamov, A.Yusupov //O‘quvchilarga bilim berishda innovatsion usullardan foydalanish T. Darslik 2016 y.
7. Babanskiy Yu.K. //Hozirgi zamon umumta’lim maktabida o‘qitish metodlari usullaridan foydalanish. T.:O‘qituvchi, 2016.- 229 b.